



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TADBIRKORLIK SOHASIDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

Shakirova Madinaxon
Xalqaro Nordik universiteti
ORCID: 0009-0002-6589-487X
madinochka_90@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, startap loyihalarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish va raqobatbardosh tadbirkorlik muhitini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion tadbirkorlik, strategik rivojlanish, startap loyihalar, raqamli iqtisodiyot, investitsiya, ilmiy-texnologik rivojlanish, tadbirkorlik muhiti, iqtisodiy modernizatsiya.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Шакирова Мадинахан
Международный университет Нордик

Аннотация. В данной статье рассматриваются стратегические направления развития инноваций в сфере предпринимательства Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется механизмам поддержки предпринимательских субъектов в условиях перехода к инновационной экономике, внедрению цифровых технологий, развитию стартап-проектов, привлечению инвестиций и укреплению сотрудничества между государством и частным сектором. Также анализируются институциональные реформы, направленные на стимулирование инновационной деятельности, внедрение результатов научных исследований в производство и формирование конкурентоспособной предпринимательской среды. Полученные результаты исследования имеют важное значение для развития инновационного предпринимательства и обеспечения устойчивого экономического роста страны.

Ключевые слова: инновации, инновационное предпринимательство, стратегическое развитие, стартап-проекты, цифровая экономика, инвестиции, научно-технологическое развитие, предпринимательская среда, экономическая модернизация.

STRATEGIC DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIONS IN THE ENTREPRENEURSHIP SECTOR OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Shakirova Madinakhan
International Nordic University

Abstract. *This article examines the strategic directions for developing innovations in the entrepreneurial sector of the Republic of Uzbekistan. Particular attention is paid to the mechanisms for supporting entrepreneurial entities in the transition to an innovation-driven economy, the introduction of digital technologies, the development of startup projects, the attraction of investments, and the strengthening of cooperation between the public and private sectors. The study also analyzes institutional reforms aimed at stimulating innovative activity, implementing research results into production, and creating a competitive entrepreneurial environment. The research findings are important for promoting innovative entrepreneurship and ensuring sustainable economic growth in Uzbekistan.*

Keywords: *innovation, innovative entrepreneurship, strategic development, startup projects, digital economy, investment, scientific and technological development, entrepreneurial environment, economic modernization.*

Kirish.

Bugungi kunda global iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar oddiy yangilik emas, balki iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan innovatsiyalar orqali mamlakatlar raqobatbardoshligini oshiradi, yangi bozorlarni egallaydi va barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu jarayonda tadbirkorlik sohasi alohida o'rin tutadi. Chunki yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, yuqori texnologiyali mahsulotlar yaratish va yangi ish o'rinlarini shakllantirish aynan tadbirkorlik faoliyati orqali amalga oshadi.

Ilmiy tadqiqotlarda innovatsion tadbirkorlik faqat alohida korxonada darajasidagi yangiliklar bilan cheklanmasligi ta'kidlanadi. Bu jarayon kengroq — ya'ni butun tadbirkorlik ekotizimi samaradorligi bilan bog'liq. Olimlar fikricha, tadbirkorlik ekotizimi institutlar, moliyaviy manbalar, bilim va malaka, infratuzilma hamda hamkorlik tarmoqlari o'zaro uyg'un ishlaganda samarali shakllanadi. Aynan mana shu omillarning muvofiqligi innovatsion rivojlanishning haqiqiy natijasini belgilaydi.

Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish darajasi ko'p jihatdan institutsional muhitga bog'liq. Agar qonunchilik, me'yoriy baza va ijtimoiy normalar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, tadbirkorlik resurslari samarali innovatsiyalarga emas, balki past unumli yoki norasmiy faoliyatga yo'naltirilishi mumkin. Demak, innovatsiyalarni rivojlantirish faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon normativ-huquqiy tizimni takomillashtirish, bilim va ko'nikmalarni oshirish, ilm-fan va biznes o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kabi kompleks chora-tadbirlarni ham talab etadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsion rivojlanishga qaratilgan davlat siyosati ancha faollashdi. Raqamlashtirish jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlarga aylandi. Biroq hududlar kesimida innovatsion faollik va investitsion imkoniyatlar o'rtasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Bu esa innovatsion siyosatni barcha hududlar uchun bir xil emas, balki ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishning aniq va asoslangan strategik yo'nalishlarini belgilash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bunda innovatsion ekotizim elementlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, institutsional muhitni

yanada takomillashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda hududiy rivojlanish mexanizmlarini samarali joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Tadbirkorlik sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy va ilmiy adabiyotlarda ko'p sohali va tizimli yondashuv asosida tadqiq qilinmoqda. Xususan, innovatsion tadbirkorlikni tushuntirishda tadbirkorlik ekotizimi nazariyasi muhim metodologik asos sifatida qaraladi. Audretsch va Belitski (2021)lar "innovatsion rivojlanish alohida korxonada darajasidagi faoliyat emas, balki institutlar, moliya, inson kapitali, infratuzilma va bilimlarning o'zaro bog'langan tizimi natijasi ekanligini asoslaydi". Ushbu yondashuv innovatsion siyosatni kompleks va ekotizim tamoyillari asosida shakllantirish zarurligini ifodalaydi.

Institutsional nazariya doirasida innovatsion tadbirkorlik regulativ, kognitiv va normativ ustunlar orqali izohlanadi hamda tadqiq qilinadi. Tadqiqotlarni birida "samarali huquqiy-me'yoriy muhit, tadbirkorlik madaniyati va bilimlar tizimi uyg'unlashgan sharoitda innovatsiyalar iqtisodiy o'sishga yuqori hissa qo'shadi" (Bosma, et all., 2021) degan fikr ilgari surilgan. Shu bois innovatsion rivojlanish strategiyasi faqat moliyaviy rag'batlantirish bilan cheklanmasdan, institutsional omillarni takomillashtirishni ham qamrab olishi kerakdir.

Milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasida (National Innovation Systems) innovatsion rivojlanishni davlat, ilmiy muassasa/tashkilotlar va biznes o'rtasidagi o'zaro aloqalar orqali ifodalaniladi. National Innovation Systems yondashuvida "innovatsion faollikni rag'batlantirishda davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va texnologiya transferining strategik rolini ta'kidlashgan" (Acs, Stam, 2017). Hududlar kesimida innovatsion rivojlanish tafovutlari mavjudligi esa innovatsion siyosatni differensial asosda amalga oshirish zarurligini ifodalaydi.

Shuningdek, dinamik kompetensiyalar nazariyasida "innovatsion ustunlikni korxonaning resurslarini qayta konfiguratsiya qilish, yangi imkoniyatlarni aniqlash va tezkor moslashish qobiliyati bilan izohlanadi. Biznes modellari va dinamik kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlik (FardaPaper – Business models and dynamic capabilities) innovatsion strategiyani shakllantirishda muhim omil hisoblanadi" (Teece, 2016) deya o'rganilgan. Shuningdek, "radikal innovatsiyalarni boshqarish va yangi mahsulotlarni tijoratlashtirish masalalari" (McDermott, & O'Connor, 2002) haqida ham tadqiqotlar keng yoritilgan.

Raqamli transformatsiya jarayoni ham innovatsion rivojlanishning muhim yo'nalishi sifatida ko'rsatilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda "AKT infratuzilmasini kengaytirish, startup ekotizimini rivojlantirish va IT-ta'limni kuchaytirish innovatsion faollikni oshirishning ustuvor omillari sifatida e'tirof etilgan" (Benhayoun, Dain, et all. 2020) tadqiq qilingan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari sifatida raqamlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda hududiy differensial yondashuvni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.


Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasi bir qator o'zaro bog'liq ustuvor yo'nalishlarga tayanadi. Xususan, innovatsion ekotizim elementlarini uyg'unlashtirish, institutsional muhitni takomillashtirish, milliy innovatsion tizimni mustahkamlash, dinamik boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda hududiy differensial siyosatni amalga oshirish ushbu jarayonning metodologik asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida mazkur yondashuvlarni empirik indikatorlar asosida tizimli baholash va ularni yagona strategik modelga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash uchun tahliliy, solishtirma va statistik metodlar qo'llanildi. Tadqiqotda davlat statistika hisobotlari, innovatsion markazlar ma'lumotlari, shuningdek, moliya va investitsiya agentliklarining ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, tadbirkorlar va ekspertlar bilan o'tkazilgan intervyular va so'rovnomalor orqali startap loyihalarni rivojlantirish, raqamli transformatsiya jarayonlari va innovatsion faoliyatning amaliyoti o'rganildi. Ushbu metodologiya strategik yo'nalishlarni aniqlash va ularni samarali amalga oshirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Shu asnoda, tadbirkorlik sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniq belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Metodologik yondashuvni davom ettirgan holda, innovatsion rivojlanish darajasini mezodarajada taqqoslash maqsadida umumlashtirilgan indeksdan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Ushbu yondashuv asosida hududlarning tadbirkorlik sohasidagi innovatsion faoliyatini aks ettiruvchi umumlashtirilgan indeks qiymatlari kamayish tartibida reytinglandi va har bir hududga tegishli daraja belgilandi. 2024-yil ma'lumotlariga tayangan holda, tadbirkorlik sohasida innovatsion rivojlanishning umumiy indeksi bo'yicha hududlar reytingi shakllantirildi (1-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlik sohasida innovatsion rivojlanish umumiy indeksining qiymati bo'yicha hududlar reytingi

Manba: muallif ishlanmasi.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, hududlar o'rtasida innovatsion rivojlanish darajasi juda notekis taqsimlangan. Toshkent shahri deyarli maksimal ko'rsatkich bilan boshqa hududlardan ancha oldinda turibdi. Bu yerda innovatsion infratuzilma, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot bazasi va tadbirkorlik muhiti ancha rivojlanganini anglatadi. Poytaxtda resurslar va imkoniyatlarning jamlangani innovatsion jarayonlarning yuqori sur'atda kechishiga xizmat qilmoqda.

O'rtacha darajadagi hududlar – Toshkent viloyati, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Namangan va Buxoro viloyatlari – innovatsion faoliyatni olib borayotgan bo'lsada, ularning salohiyati hali to'liq ishga tushirilmagan. Bu hududlarda imkoniyatlar mavjud, biroq investitsion faollik, texnologik yangilanish yoki innovatsion natijalarni tijoratlashtirish jarayoni yetarli darajada samarali emas. Ular yetakchi hudud bilan taqqoslaganda sezilarli tafovutga ega. Past ko'rsatkichli hududlar esa innovatsion rivojlanish borasida jiddiy e'tibor talab qiladi. Bu

yerda innovatsion faoliyat sust, ilmiy salohiyat va investitsiya oqimi cheklangan, tadbirkorlikning texnologik yangilanish darajasi past. Ayniqsa, ayrim hududlarda innovatsion jarayonlar deyarli shakllanmaganini ko'rish mumkin.

Umuman olganda, grafik O'zbekistonda innovatsion rivojlanish asosan markazlashganligini, ya'ni poytaxt va unga yaqin hududlarda to'planganini ko'rsatadi. Shu bois hududiy siyosatda bir xil yondashuv emas, balki darajaga qarab differensial strategiya qo'llash maqsadga muvofiqdir. Yuqori darajadagi hududlar uchun tezlashtirilgan o'sish, o'rtacha hududlar uchun bosqichma-bosqich rivojlanish, past hududlar uchun esa infratuzilmani mustahkamlash va institutsional qo'llab-quvvatlash strategiyalari samarali natija berishi mumkin.

Tadbirkorlik sohasidagi innovatsiyalarni mezo darajada tabaqalashtirilgan baholash uchun hududlar tadbirkorlik sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirish umumiy indeksida hududlarda yetakchi o'rinni egallagan hududdan kechikish kattaligiga ko'ra guruhlanadi.

1-jadval

Mezo darajada tadbirkorlik sohasida innovatsion rivojlanish umumiy indeksining intervalli shkalasi va bahosi

Guruh	Innovatsion rivojlanishning umumiy indeks qiymatining yetakchi hududlarning tegishli qiymatidan kechikishi kattaligi, %	Innovatsion rivojlanish umumiy indeksi darajasini
1	< 25,0	Yuqori
2	>25,0; < 50,0	O'rtacha
3	> 50,0	Qisqa

Manba: muallif ishlanmasi.

Belgilangan shkala asosida hududlar innovatsion rivojlanish umumiy indeksi (Iu) bo'yicha uchta guruhga ajratildi (2-jadval). Ushbu tasnif yetakchi hudud ko'rsatkichiga nisbatan farq darajasini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

2-jadval

Hududlar bo'yicha innovatsion rivojlanish umumiy indeksi va reytingi

Hudud	Innovatsion rivojlanish umumiy indeksi (Iu)	Yetakchi hududdan orqada qolish, %	Guruh	Innovatsion rivojlanish darajasi	Reyting
Toshkent shahri	0,9995	0,00	1	Yuqori	1
Toshkent viloyati	0,248253	75,17	3	Past	2
Samarqand viloyati	0,177908	82,21			3
Farg'ona viloyati	0,149694	85,03			4
Andijon viloyati	0,134043	86,60			5
Namangan viloyati	0,097879	90,21			6
Buxoro viloyati	0,078869	92,11			7
Qashqadaryo viloyati	0,067851	93,21			8
Navoiy viloyati	0,054724	94,53			9
Qoraqalpog'iston R.	0,041744	95,83			10
Surxondaryo viloyati	0,039091	96,09			11
Xorazm viloyati	0,026341	97,37			12
Jizzax viloyati	0,018584	98,14			13
Sirdaryo viloyati	0,000024	99,99			14

Manba: muallif ishlanmasi.

Natijada innovatsion rivojlanishning yuqori, o'rta va past darajalari aniqlandi. Yuqori darajaga yetakchi hududdan 25 foizgacha tafovutga ega hududlar kiritildi. O'rta darajaga 25–50 foiz oralig'ida orqada qolayotgan hududlar mansub etildi. Past darajaga esa yetakchi hududdan 50 foizdan ortiq farq qiluvchi hududlar kiritildi.

Bunday guruhlash hududlar o'rtasidagi innovatsion rivojlanish tafovutlarini aniq ko'rsatib beradi va har bir toifa uchun mos strategik yondashuvni tanlash imkonini yaratadi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, hududlar o'rtasida innovatsion rivojlanish darajasi juda katta farq qiladi. Toshkent shahri deyarli maksimal ko'rsatkich bilan boshqa hududlardan ancha oldinda turibdi. Hatto ikkinchi o'rindagi Toshkent viloyati ham yetakchidan 75 foizdan ortiq orqada qolgan. Qolgan viloyatlarda esa tafovut yanada kattalashib boradi. Bu holat innovatsion resurslar, investitsiyalar va zamonaviy texnologik infratuzilma asosan poytaxtda jamlangani, boshqa hududlarda esa bu jarayonlar yetarlicha rivojlanmaganini ko'rsatadi.

Guruhlash natijalari ham shuni tasdiqlaydi: belgilangan shkala bo'yicha faqat Toshkent shahri yuqori darajaga kirgan, qolgan barcha hududlar past segmentda joylashgan. O'rta darajadagi hududlar shakllanmagani innovatsion rivojlanishning hududlar kesimida notekis taqsimlanganini anglatadi. Shuning uchun ham hududlarga bir xil yondashuv emas, balki ularning imkoniyatiga qarab alohida strategiya ishlab chiqish muhim. Yetakchi hudud uchun tezroq o'sish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish, boshqa hududlar uchun esa infratuzilmani mustahkamlash, investitsiyalarni ko'paytirish va innovatsion muhitni yaxshilash ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadbirkorlik iqtisodiy noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turi bo'lib, u iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish hamda foyda olishga yo'naltirilgan. Mazkur faoliyatning samaradorligi mulkdor va menejrlarning innovatsion faolligi, innovatsiyalarni yaratish va joriy etish qobiliyati, mavjud ichki resurslardan oqilona foydalanish darajasi hamda tashqi muhit imkoniyatlarini samarali safarbar eta olishiga bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining iqtisodiy natijalari va tavakkalchilik oqibatlarini uchun mas'uliyatni ham nazarda tutadi.

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik xulq-atvorining bir qator modellari ajratib ko'rsatiladi. Xususan, resurslarga yo'naltirilgan modelda biznes faoliyatini yuritish va raqobatbardoshlikni ta'minlash jarayoni asosan mavjud resurslar va ichki muhit omillariga tayanadi. Bunda korxonada o'zining moliyaviy, moddiy, mehnat va intellektual salohiyatidan maksimal darajada foydalanishga intiladi. Aksincha, innovatsion modelda biznes faoliyati tashqi muhit imkoniyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishga yo'naltiriladi. Bu model doirasida yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, xomashyo manbalarini diversifikatsiya qilish, zamonaviy biznes-modellarni shakllantirish hamda boshqaruvning ilg'or usullarini qo'llash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur model tadbirkorlikning dinamik va innovatsiyaga asoslangan rivojlanish konsepsiyasini aks ettiradi.

Yuqoridagi reyting natijalari va intervalli shkala asosida amalga oshirilgan guruhlashdan ko'rinadiki, O'zbekistonda tadbirkorlik sohasida innovatsion rivojlanish hududlar bo'yicha bir xil shakllanmagan. Innovatsion faollik, resurslar, infratuzilma va investitsiya oqimlari asosan poytaxtda jamlangan, boshqa hududlarda esa bu imkoniyatlar ancha cheklangan. Bu holat innovatsion siyosatni hamma hududga bir xil qo'llash emas, balki ularning real salohiyati va sharoitidan kelib chiqib differensial yondashuv asosida olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar innovatsion rivojlanishni baholashda kompleks yondashuv qanchalik muhim ekanini ham tasdiqlaydi. Chunki umumiy innovatsion indeks (I_u) innovatsion imkoniyatlar indeksi (I_{ii}) va innovatsiyalar samaradorligi indeksi (I_{is})ning og'irlikli yig'indisiga asoslanadi. Shu sababli bu yondashuv hududlarning faqat resurs salohiyatini emas, balki ularning innovatsion natijadorligini ham birgalikda baholash imkonini beradi. Bosh komponentlar usuli asosida normallashtirilgan va og'irlashtirilgan ko'rsatkichlardan

foydalanish esa hududlarni o'zaro aniqroq taqqoslash va xulosalarni yanada asosli qilishga xizmat qiladi.

Hududlar bo'yicha ko'rsatkichlarning aksariyati past segmentda to'plangani innovatsion siyosatda ustuvor e'tibor aynan infratuzilmani mustahkamlash, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, ilm-fan bilan biznes o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirishga qaratilishi kerakligini ko'rsatadi. Ayniqsa, hududiy texnoparklar, innovatsion markazlar va startap inkubatorlar tarmog'ini kengaytirish orqali innovatsion ekotizimni hududlar kesimida muvozanatlashtirish mumkin.

Tadbirkorlik sohasida innovatsion rivojlanishni chuqurroq tahlil qilish uchun SWOT-tahlil metodologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu usul ichki imkoniyatlar va cheklovlarni, shuningdek tashqi muhitdagi imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlashga yordam beradi. Shu jihatdan SWOT-tahlil innovatsion siyosatni shakllantirish va ustuvor strategik qarorlar qabul qilishda qulay analitik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida innovatsion tadbirkorlikning *kuchli tomonlari* avvalo davlat tomonidan innovatsion iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat bilan bog'liq. So'nggi yillarda innovatsion rivojlanish strategiyalari, raqamli iqtisodiyot dasturlari, startap ekotizimini rivojlantirish choralari bu yo'nalishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatning yosh va faol demografik tarkibi ham innovatsion tadbirkorlik uchun katta inson kapitali manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, IT Parklar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar va innovatsion markazlar tarmog'ining shakllanishi innovatsion infratuzilmani kuchaytirishga yordam bermoqda. Kichik biznesning moslashuvchanligi va bozor talablariga tez javob bera olishi ham muhim afzalliklardan biridir.

Biroq *zaif tomonlar* ham yetarlicha ko'p. Avvalo, hududlar kesimida innovatsion infratuzilma bir tekis rivojlanmagan va ilmiy-texnologik salohiyat asosan poytaxtda to'plangan. Moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmagani innovatsion loyihalarning rivojlanishini sekinlashtiradi. Venchur kapital bozori hali to'liq shakllanmagan, bank kreditlari esa ko'pincha yuqori foizlarda beriladi. Ilm-fan va biznes o'rtasidagi hamkorlikning sustligi, innovatsion ishlanmalarni tijoratlash tirish mexanizmlarining zaifligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi ham innovatsion faoliyat samaradorligini pasaytiradigan omillar qatoriga kiradi.

Imkoniyatlar nuqtai nazaridan qaralganda, global raqamli transformatsiya O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, elektron tijoratni rivojlantirish va xizmat ko'rsatishda yangi biznes modellari shakllantirish mumkin. Shuningdek, xalqaro integratsiya, xorijiy investitsiyalar oqimi va xalqaro ilmiy hamkorlik innovatsion texnologiyalar transferini tezlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Davlat tomonidan startap ekotizimini rivojlantirish, grantlar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayib borayotgani ham muhim imkoniyatlardan biridir.

Tahdidlar esa asosan tashqi raqobat va ichki tizimning yetarli darajada mustahkam emasligi bilan bog'liq. Global raqobatning kuchayishi mahalliy korxonalar uchun texnologik ustunlikni saqlab qolishni qiyinlashtiradi. Tashqi bozorlarning o'zgaruvchanligi, iqtisodiy noaniqlik va yuqori texnologiyali mahsulotlar segmentida kuchli xalqaro kompaniyalar bilan raqobat innovatsion tadbirkorlikka bosim o'tkazadi. Shu bilan birga, intellektual mulkni himoya qilish tizimining yetarli darajada rivojlanmagani ham innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga salbiy ta'sir qiladi.

SWOT-tahlil natijalari asosida O'zbekistonda tadbirkorlik sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini bir necha ustuvor bloklar asosida shakllantirish mumkin. *Birinchi navbatda*, innovatsion ekotizim elementlarini integratsiyalash zarur. Bu degani davlat institutlari, ilmiy tadqiqot muassasalari, universitetlar, biznes subyektlari, moliyaviy institutlar va innovatsion infratuzilma o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kerak. Universitet-sanoat hamkorligini rivojlantirish, texnologiya transfer markazlarini ko'paytirish

va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — institutsional muhitni takomillashtirish. Innovatsion tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi uchun normativ-huquqiy bazani soddalashtirish, tadbirkorlikni tartibga soluvchi mexanizmlarni liberallashtirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi soliq hamda moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish zarur. Shu bilan birga, intellektual mulkni himoya qilish, patentlash jarayonlarini soddalashtirish va innovatsion ishlanmalarni bozorda himoyalash tizimini kuchaytirish muhim vazifalardan biridir.

Uchinchi ustuvor yo'nalish — milliy innovatsion tizimni mustahkamlash. Bunda ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishni oshirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish zarur. Ilmiy-texnologik parklar, innovatsion klasterlar va texnologiya transfer markazlari tarmog'ini rivojlantirish ham milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi yo'nalish — dinamik boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan menejmentning innovatsion yondashuvlariga bog'liq. Shu bois korxonalarda strategik menejment, innovatsion loyiha boshqaruvi, texnologik marketing va raqamli boshqaruv kompetensiyalarini kuchaytirish lozim. Bu tadbirkorlik subyektlariga yangi imkoniyatlarni tezroq aniqlash, resurslarni qayta taqsimlash va bozor o'zgarishlariga moslashish imkonini beradi.

Beshinchi yo'nalish — raqamli transformatsiyani jadallashtirish. Raqamli iqtisodiyot innovatsion rivojlanishning muhim drayveri bo'lib, AKT infratuzilmasini kengaytirish, biznes jarayonlarini raqamli platformalar asosida modernizatsiya qilish va elektron tijoratni rivojlantirish orqali sezilarli natijalar berishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn va sanoat 4.0 texnologiyalarini joriy etish tadbirkorlik subyektlarining texnologik darajasini oshiradi.

Oltinchi ustuvor yo'nalish — hududiy differensial innovatsion siyosatni amalga oshirish. Hududlar kesimida innovatsion rivojlanish darajasi keskin farq qilgani sababli ularni bir xil siyosat bilan boshqarish samarali bo'lmaydi. Yuqori darajadagi hududlar uchun tezlashtirilgan innovatsion o'sish strategiyasi, o'rtacha darajadagilar uchun bosqichma-bosqich innovatsion rivojlanish strategiyasi, past darajadagi hududlar uchun esa innovatsion infratuzilmani shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiya zarur. Bunday yondashuv hududlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish va innovatsion rivojlanishni muvozanatlashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, SWOT-tahlil natijalari ham shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarining moslashuvchanligi, tezkor boshqaruv qarorlari va hamkorlikka ochiqligi innovatsion rivojlanishning muhim drayveri bo'lishi mumkin. Biroq moliyaviy resurslarning cheklanganligi, texnologik bazaning sustligi va malakali kadrlar yetishmasligi innovatsion jarayonlarni sekinlashtiradi. Shuning uchun innovatsion strategiya ishlab chiqishda nafaqat tashqi imkoniyatlardan foydalanish, balki ichki zaifliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish masalasi ham ustuvor bo'lishi kerak.

Xulosa va takliflar.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarur. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish hamda investitsiya va mentorlik dasturlarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Tadbirkorlik muhitida raqobatbardoshlik va sifat nazoratini oshirish orqali innovatsiyalar samaradorligini ta'minlash mumkin, bu esa mamlakatning iqtisodiy o'sishini va barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik sohasida innovatsion rivojlanishning strategik yo'nalishlari tizimli, ko'p darajali va empirik asoslangan yondashuvni talab qiladi. Hududiy reyting va intervalli shkala asosida amalga oshirilgan tahlil innovatsion rivojlanishning real holatini aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur analitik asos yaratadi. Kelgusida innovatsion siyosatni samarali amalga oshirish uchun umumlashtirilgan indekslar asosida monitoring tizimini joriy etish, hududlar bo'yicha natijadorlikni muntazam baholash va differensial strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar / Jumepamyra / Reference:

Acs, Z. J., Stam, E., Audretsch, D. B., & O'Connor, A. (2017). *The lineages of the entrepreneurial ecosystem approach*. *Small business economics*, 49(1), 1-10.

Audretsch, D. B., Belitski, M., & Cherkas, N. (2021). *Entrepreneurial ecosystems in cities: The role of institutions*. *PloS one*, 16(3), e0247609.

Benhayoun, L., Le Dain, M. A., Dominguez-Péry, C., & Lyons, A. C. (2020). *SMEs embedded in collaborative innovation networks: how to measure their absorptive capacity?* *Technological Forecasting and Social Change*, 159, 120196.

Bosma, N., Hill, S., Ionescu-Somers, A., Kelly, D., Guerrero, M., & Schott, T. (2021). *Global entrepreneurship monitor 2020/2021 global report*.

McDermott, C. M., & O'Connor, G. C. (2002). *Managing radical innovation: an overview of emergent strategy issues*. *Journal of Product Innovation Management: an international publication of the product development & management association*, 19(6), 424-438.

Teece, D. J. (2016). *Dynamic capabilities and entrepreneurial management in large organizations: Toward a theory of the (entrepreneurial) firm*. *European economic review*, 86, 202-216.